

**ODAM SAVDOSI – INSONIYATGA QARSHI TAHDID***Isroilov Mutallif, Guliston davlat universiteti katta o'qituvchisi***HUMAN TRAFFICKING IS A THREAT AGAINST HUMANITY***Isroilov Mutallif, senior lecturer Gulistan State University***ТОРГОВЛЯ ЛЮДЬМИ – УГРОЗА ПРОТИВ ЧЕЛОВЕЧЕСТВА***Исроилов Муталлиф, старший преподаватель Гулистанского государственного университета*<https://orcid.org/>[0009-0005-4060-1278](https://orcid.org/0009-0005-4060-1278)

e-mail:

[mutallif.isroilov@mail.ru](mailto:mutallif.isroilov@mail.ru)

**Annotatsiya:** Hozirgi globallashuv davrida odam savdosi jahon hamjamiyatining diqqatini tortuvchi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Maqolada odam savdosi huquqqa qarshi jinoyat ekanligi, O'zbekistonda ham uning holatlari aniqlanganligi, bu jinoyatni bartaraf qilish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadbirlar kabi masalalarni ochib berishga harakat qilingan.

**Kalit so'zlar:** odam savdosi, shaxsga qarshi qaratilgan jinoyat, qonun, xalqaro hamkorlik, chora-tadbirlar, reabilitatsiya markazlari.

**Abstract:** In the modern era of globalization, human trafficking is one of the pressing problems that attracts the attention of the entire world community. The article makes an attempt to reveal such issues that human trafficking is an illegal crime, its cases have also been identified in Uzbekistan, and the need to take measures to prevent this crime.

**Keywords:** human trafficking, crime against the person, law, international cooperation, measures, rehabilitation centers.

**Аннотация:** В современную эпоху глобализации торговля людьми является одной из актуальных проблем, привлекающей внимание всего мирового сообщества. В статье сделана попытка раскрыть такие вопросы, что торговля людьми есть противоправное преступление, в Узбекистане также выявлены её случаи, необходимость осуществления мер по предотвращению этого преступления.

**Ключевые слова:** торговля людьми, преступление против личности, закон, международное сотрудничество, меры, центры реабилитации.

**KIRISH.** Qadimdan insoniyat nomiga dog' bo'lib kelayotgan, XXI asrda madaniylashgan dunyo qiyofasiga mos kelmaydigan illatlar qatorida odam savdosi bilan bog'liq muammolar bizning davlatimizga ham tahdid solmoqda. Bu global muammo dunyo jamoatchiligini chuqur tashvishlantirmoqda. Unga qarshi barcha davlatlar hamkorlikda faoliyat yuritishlari zarurligi sababli, Birlashgan Millatlar Tashkilotining eng ko'p e'tibor qaratayotgan faoliyat yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ma'lumotlarga ko'ra, hozir dunyo bo'yicha taxminan 27 million kishi odam savdosi tufayli

qullik holatiga tushib qolgan. Bu borada Nepal, Sudan, BAA, Hindiston, Gabon, Gaiti kabi davlatlarda eng og'ir holatlar kuzatilmog'qa.

O'zbekiston Respublikasining 2008-yilda qabul qilingan "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunda berilgan ta'rifga ko'ra, ushbu faoliyatning uchta yo'nalishini ajratib ko'rsatish mumkin: xatti-harakat, vosita va maqsad. Xatti-harakat deganda odamlarni aldov yo'li bilan yoki ularning ixtiyoriga zid ravishda yollash, tashish, topshirish, yashirish hamda qabul qilib olish bilan bog'liq ishlar; vosita deganda kuch ishlatish yoki kuch bilan

qo‘rqitish, majburlash, o‘g‘irlash, firibgarlik, aldov, jabrlanuvchining erksizlik holatidan foydalanish, uni nazorat qilib turgan shaxsdan pul yoki boshqa manfaatdorlik evaziga sotib olish; maqsad deganda, jumladan, fohishabozlikda foydalanish, majburiy mehnat, qullik yoki qullikka o‘xshash holatlarga solish kabilar tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Odam savdosiga qarshi kurash to‘g‘risida”gi 2008-yil 18-martda qabul qilingan qonuni 2020-yil 17-avgustdagi O‘RQ-633-sonli “Odam savdosiga qarshi kurash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi Qonunga muvofiq yangi tahrirda qabul qilingan bo‘lib, mazkur Qonunning 3-moddasida quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llanilgan:

- odam savdosiga qarshi kurashish — odam savdosining oldini olish, uni aniqlash, unga chek qo‘yish, uning oqibatlarini minimallashtirish, odam savdosidan jabrlanganlarga yordam ko‘rsatish bo‘yicha faoliyat;

- odam savdosi — kuch bilan tahdid qilish yoki kuch ishlatish yoxud boshqa majburlash shakllaridan foydalanish, o‘g‘irlash, firibgarlik, aldov, hokimiyatni suiiste‘mol qilish yoki vaziyatning qaltisligidan foydalanish orqali yoxud boshqa shaxsni nazorat qiluvchi shaxsning roziligini olish uchun uni to‘lovlar yoki manfaatdor etish evaziga og‘dirib olish orqali odamlardan foydalanish maqsadida ularni yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish. Odamlardan foydalanish boshqa shaxslarning fohishaligidan foydalanishni yoki ulardan shahvoniy foydalanishning boshqa shakllarini, majburiy mehnat yoki xizmatlarni, qullik yoki qullikka o‘xshash odatlarni, erksiz holat yoxud inson a‘zolari yoki to‘qimalarini ajratib olishni anglatadi;

- odam savdosi bilan shug‘ullanuvchi shaxs — mustaqil ravishda yoki bir guruh shaxslar tarkibida odam savdosi bilan bog‘liq har qanday harakatni sodir etuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs, shuningdek o‘z harakatlari bilan odam savdosiga ko‘maklashadigan, xuddi shuningdek garchi o‘z mansab vakolatlariga ko‘ra to‘sqinlik qilishi va qarshi kurashishi shart bo‘lsa ham odam savdosiga to‘sqinlik qilmaydigan yoki qarshi kurashmaydigan mansabdor shaxs[1].

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.**

I.Karabayev odam savdosi jinoyatining kelib chiqish

sabablari va ularning oldini olish yo‘llarini tahlil qilgan[4]. N.A.Korsikova odam savdosi allaqachon uyushgan jinoyatchilikning bir turiga aylangan, deb yozadi [5]. I.Abdushukurova va B.Samadovlar odam savdosiga qarshi kurash maqsadida O‘zbekistonda amalga oshirilgan chora-tadbirlar haqida fikr yuritishgan [2]. I.K.Abdushukurova odam savdosi tushunchasiga izoh berib, xotin-qizlar savdosining bugungi kundagi holati, ushbu jinoyatga qarshi kurash va jabrdiydalarga ko‘rsatilgan yordam haqida ma‘lumot keltirgan. Jumladan, 2014-2017 yillarda ekspluatatsiya shakllari bo‘yicha aniqlangan odam savdosi jabrdiydalarining sonini diagramma ko‘rinishida ko‘rsatgan[3].

**MUHOKAMA.** Odam savdosi – noqonuniy, g‘ayriinsoniy xatti-harakat. U bilan asosan uyushgan jinoiy guruhlar vakillari shug‘ullanishadi. Bu savdoga asir tushgan odam o‘z insonlik mavqe‘ini yo‘qotib, sotiluvchi va sotib olinuvchi mahsulotga aylanadi. Odam savdosi davrimizning o‘tkir muammolaridan biri. Jinsiy ekspluatatsiya qilish, majburiy mehnat, bolalarni ekspluatatsiya qilish, tilanchilik, odam organlari va to‘qimalarini ko‘chirish maqsadida odamfurushlik bilan shug‘ullanish – barchasi ushbu jinoyatning mudhish shakllaridan sanaladi.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, bu jinoyat qurboniga aylanishlari uchun yurtdoshlarimizning bir qancha sabablari bor: ular ishonuvchan, moliyaviy muammolarni qisqa muddatlarda hal qilishga intiladilar, oson ish topishni istaydilar, yuridik bilim-ga ega emas, ayrim yurtdoshlarimizning noqonuniy, g‘ayriinsoniy xatti-harakatlar orqali daromad olishga intilishi, ushbu jinoyatdan jabrlanganlarning dunyo-qarashining torligi, aholi o‘rtasida targ‘ibot va tashviqot ishlarining yetarli darajada emasligi[2, b.140].

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach, tadbirkorlik, xususiy biznesga keng yo‘l ochildi, xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalarida hamkorlik o‘rnatildi, yurtimiz fuqarolarining xorijiy mamlakatlarga bemalol chiqishlari uchun imkoniyat va yetarli shart-sharoitlar yaratildi. Afsuski, ayrim shaxslar bunday shart-sharoit va imkoniyatlardan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanib, fuqarolarimizni turli aldov va firibgarlik bilan xorijga olib chiqib ketishga urinmoqdalar. Buning oqibatida yurtimiz fuqarolari ham odam savdosi qurboniga aylanmoqda.

Dunyoda odam savdosi bilan bog‘liq vaziyat tahlili bu boradagi ahvolning hamon jiddiylicha qolayotganligini ko‘rsatmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma‘lumotiga ko‘ra, dunyoda har yili taxminan 2 million 700 mingta kishi odam savdosining qurboniga aylanmoqda. Xalqaro ekspertlarning baholashicha, ushbu jinoyatchilik natijasida olinayotgan yillik daromad miqdori 7 milliard AQSH dollaridan oshib ketgan. Tashvishlanarlisi, odam savdosi jinoyatidan jabrlanganlarning 80 foizi ayol va bolalardir. Har yili 600 mingdan 800 mingtagacha ayol va bolalar aldov yo‘li bilan chet ellarga olib ketilib, sotib yuborilmoqda[6]. BMTning statistik ma‘lumotlariga ko‘ra, odamlar kamida 127 mamlakatdan sotuvga chiqmoqda va ular 137 davlatda ekspluatatsiya qilinmoqda. Har yili turli hisob-kitoblarga ko‘ra, 20-40 million kishi quldorlikning zamonaviy shakli qurboniga aylanyapti. Mazkur muammoning aniq ko‘lamini bilish juda ham qiyin, zero, jinoiy faoliyat yashirin sodir etiladi. Aniq statistika mavjud emas, buni yuritib ham bo‘lmaydi. Xalqaro darajada odam savdosi qurbonlarining atigi 0,04 foizigina aniqlangan.

**NATIJALAR.** Bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo‘lgan odam savdosining oldini olish va unga qarshi kurashish borasida yurtimizda ham qator chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Shu bilan birga, odam savdosi transmilliy, ya'ni hudud va chegara tanlamaydigan jinoyat ekanligi hisobga olinib, davlatimiz 2003-yil 12-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1950-yilda qabul qilingan «Odam savdosi va fohishalikning uchinchi shaxslar tomonidan ishlatilishiga qarshi kurash to‘g‘risida»gi Konventsiyaga qo‘shildi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2000-yil 15-noyabrdagi rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan «Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to‘g‘risida»gi Konventsiya, shuningdek, odam savdosi, ayniqsa, ayollar va bolalarni sotishning oldini olish, unga chek qo‘yish va buning uchun jazolash to‘g‘risidagi qo‘shimcha protokol ham ratifikatsiya qilindi [4].

Ta’kidlash kerakki, so‘nggi paytlarda mehnat jamoalarida, akademik guruhlarda, mahallalarda vaqti-vaqti bilan mutasaddi organlar vakillari bilan hamkorlikda odam savdosi holatlari, qurbonlar, ushbu jinoyatni sodir etgan shaxslar haqida tushuntirish ishlari va profilaktik uchrashuvlar kabi tadbirlar o‘tkazilmoqda.

**XULOSA.** Respublikamizda bugungi kunda odam savdosidan jabrlangan mamlakatimiz fuqarolarini ijtimoiy rehabilitatsiya qilish bo‘yicha keng tadbirlar amalga oshirilmoqda. Har bir viloyatda jabrlanganlarga yordam ko‘rsatish rehabilitatsiya markazlari tashkil etilgan, ishga ketayotgan shaxslar bilan tushuntirish ishlari tashkil etilmoqda, ularning yoshi, oilaviy ahvoli, ketish sabablari va boshqalar o‘rganilib, agentlik xodimlari ishtirokida xorijdagi mehnat masalalari bo‘yicha ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazilmoqda.

Hozirgi paytda ilg‘or jamoatchilik mazkur muammo sababidan jabrlanganlarni osoyishta hayotga qaytarish, hayotda o‘z o‘rinlarini topib olishlariga ko‘maklashishlari kerak. Maktablarda, oliygozlarda, mahallalarda yoshlar uchun voyaga etmaganlarni odam savdosi qurbonlariga aylanishining oldini olish maqsadida maxsus kurslar tashkil etish va o‘tkazishga alohida e’tibor qaratish lozim.

#### ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Одам савдосига қарши кураш тўғрисида”ги Қонуни URL: <https://lex.uz/acts/1339436>
2. Абдушукурова И.К., Самадов Б.К. О мерах по борьбе против торговли людьми // Научный журнал. 2016 №5(7). С.140-141. <https://scientificmagazine.ru/images/PDF/2016/7/Nauchnyj-zhurnal-6-7.pdf>
3. Абдушукурова И.К. Противодействие торговле женщинами и методы профилактики // Вестник науки и образования. 2020. №10 (88). Часть 3. С.39-42. <https://cyberleninka.ru/article/n/protivodeystvie-torgovle-zhenschinami-i-metody-profilaktiki/viewer>
4. Карабаев И. Одам савдоси жинояти, унинг келиб чиқиш сабаблари ва одам савдосини олдини олиш масалалари. 2022 йил 27 январь. <https://yangiobod.jizzax.uz/yangiliklar1397-odam-savdosi-zhinoyaati-uning-kelib-chiish-sabablari-va-odam-savdosini-oldini-olish-masalalari.html>
5. Корсикова Н.А. Торговля людьми как актуальный подвид организованной преступности // Современная наука. 2011. №1(4). - С.30-32.
6. Norboyev O. Odam savdosi – global muammo URL: <http://pravacheloveka.uz/oz/articles/odam-savdosi-global-muammo>